

Sen aslida tayanchimsan, suyangan tog'im,
Boshim uzra hilpirayver mudom bayrog'im!




TONG

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



YULDUZI





2009-yil
23-noyabr
N:47
(66744)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



«YANGI AVLOD - 2009»



2 - bet

bolalar ijodiyoti festivalining Respublika
bosqichi g'oliblari saralandi



4 - bet

KUZGI TA'TIL TAASSUROTлари

Bu yilgi kuzgi ta'til kunlari Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 132-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari yodida bir umrga saqlanib qolsa, ajabmas. R.Jo'rayeva, N.Tojiyeva, Z.Saidxo'jayeva kabi ustozlari ularni Amir Temur, O'zbekiston tarixi va tabiat muzeylariga sayohatga olib borishdi. Ayniqsa, Toshkent Davlat sirkidagi tomoshalar juda zavqli bo'ldi.

Mitti sayohatchilar Amir Temur muzeyining milliy me'morchiligimiz an'analari

asosida qurilgan naqshinkor binosini hayrat va hayajon bilan tomosha qilishdi. U yerdagi tarixiy eksponatlarni ko'rib, Sohibqiron bobomiz hayoti va faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlar bilan tanishgan kichkin-

toylar ancha jiddiy tortib, o'zlarini biroz ulg'ayib qolgandek his qilishdi.

O'zbekiston tarixi muzeyidan olgan ma'lumotlari maktabda tarix fanidan olgan bilimlarini yanada boyitishga hissa qo'shgan bo'lsa, tabiat muzeyiga

qilingan sayohat chog'ida ularning murg'ak qalblaridagi ona tabiatga bo'lgan mehr yanada ortdi.


Bir so'z bilan aytganda, bolajonlarning kuzgi ta'til kunlari ham maroqli, ham foydali o'tdi.

AZIZA



ENG MASHHUR IXTIROLAR

Ixtiro! Bolalar, bu bir og'iz so'z, ammo uning zamirida dunyodan ulkan ma'no bor. Qayerda ixtirochilar ko'p bo'lsa, shunchalik ko'p taraqqiyotga erishiladi. Ixtirochilikka qiziqing, bizning oramizdan ham ixtirochilar chiqib, millatimiz nomi dunyoga yoyilsin. Bugun esa biz sizlarni dunyoning eng mashhur ixtirolari bilan tanishtiramiz. Bu ixtirolar hamon insoniyatga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.




OVNAYI JAHON QAYERDA YARATILGAN?

Birinci oynayi jahon Toshkentda yaratilgan.

(Bu to'g'rida yaqin orada kengroq ma'lumot beramiz).

KIRPATRIK MAKMILLAN

Bu nomni eslab qoling. U Angliyada yashagan. Temirchi bo'lgan. Dunyoda ilk bor velosipedni ixtiro qilgan.



HOSIL BAYRAMI

Oltin kuz fasli bobodehqonlarimiz uchun eng mas'uliyatli palla sanaladi. Ular yil bo'yi qilgan mehnatlarining hosilini yig'ib olib boshladilar. Biz ham o'z sinfimiz o'quvchilari bilan sinf rahbarimiz Aziza Yo'ldosheva rahbarligida «Hosil bayrami»ni nishonladik.

Biz «Mevalar» va «Sabzavotlar» guruhlariga bo'linib, o'zaro musobaqalashdik. «Dehqon» va «Bog'bon» bo'lgan o'quvchilar o'z mehnatlari haqida so'zladilar. «Meva» va «Sabzavot»lar esa o'zlariga she'riy ta'rif berdilar. Topishmoqlar topdik, boshqotirmalar yechdik, dunyo daraxtlaridan mevalar terdik, oltin kuz

fasli, qishloq hayoti, mo'l hosil haqida qo'shiqlar kuyladik, she'rlar aytdik.

Tadbir so'nggida maktabimiz direktori

Dilfuza Islomova so'zga chiqib, qishloqlar hayotidagi yangiliklar, ularning taraqqiyoti va farovonligi yilida olib borilayotgan ishlar haqida gapiradilar. Tadbirda mehmon bo'lgan ota-onalarimiz, buvijonlarimiz ham bir olam taassurotlar oldilar. Men ham kelajakda fermer bo'lishni orzu qildim.

Boburbek XUDOYBERGANOV,
Uchtepa tumanidagi 228-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Uyimiz maktabning shundoqqina yonida joylashgan. Har kuni ertalab ishga otlanganimda, to'p-to'p bo'lib o'qishga yo'l olgan o'quvchilar oqimiga duch kelaman. Beixtiyor ularning bahsmunozaralari-yu suhbatlariga guvoh bo'laman. Shunday paytlarda o'zinning ham o'quvchilik davrim ko'z oldimga keladi. Ikki davr yoshlarini qiyoslayman. Har jihatdan bugungi yoshlarimiz ustun kelaveradi. Ularning murg'ak yoshlaridanoq yuqori darajadagi texnika vositalaridan xabardorliklari, darslar jarayonida ulardan bemalol foydalana olishlari kishini quvontiradi. Shular haqida o'ylarkanman, bundan bir necha yil avval sodir bo'lgan bir voqea yodimga tushdi: barvaqt ishga ketayapman. Qo'shni bolakaylar Jamol bilan Abror mendan sal oldinroqda ketib borishardi. Ularning qizg'in suhbatlari qulog'imga chalindi.

– Meni yig'ayotgan pulim sakkiz ming bo'ldi, – dedi Abror quvonch bilan.

– Menikiyam besh mingdan oshdi, – dedi Jamol o'rtog'iga qarab. – Bugun tushlikka olgan pulimni qo'shsam, olti mingdan oshadi.

Bu bolajonlarni yaxshi taniganim uchun o'yladim. Har ikkisi ham futbol ishqi bozi.

– Ha, shovvozlar, – dedim ularga kulib qarab, – koptok puli yig'ilib qoldimi?

Bolalar bir lahza to'xtab qolishdi. Keyin esa baravariga javob qaytarishdi.

– Koptokni allaqachon sotib olganmiz. Endi yangi yilga tayyorgarlik ko'rayapmiz.

– Nima qilmoqchisizlar? – dedim qiziqishim yanada ortib.

– Bu yil o'tgan yilgidan ham ko'proq mushak sotib olmoqchimiz. Ro'paramizdagi

ayrim katta kishilar ham «jonbozlik» ko'rsatishgandi. Bayram «sharofati» bilan kasalxonaga tushganlar ham ko'p bo'lgan.

Ertalabki suhbat kun bo'yi xayolimdan ketmadi. Qo'shni bolakaylarga qilayotgan ishlarining noto'g'ri ekanligini qanday tushuntirsam ekan, deb o'yladim.

Ishdan qaytayotganimda, odat-

sarflashga va'da berishdi.

Adashmasam, o'sha yili yangi yil oqshomida bizning uyimiz bolalari mushak otishda mag'lub bo'lishgandi...

Bu voqea ham ancha yillar bo'lib ketdi. Abror bilan Jamol oliy o'quv yurtlarini bitirib, yaxshi joylarda ishlashyapti.

Yaqinda kichkina bolakay maydachuyda sotib o'tirgan opadan, paq-puq bormi, deb so'radi. Opa esa hali olib kelmagani, yaqin kunlarda olib kelishini aytdi.

Bu holatga hayron bo'lib qarab turganimni ko'rgan opa so'radi:

– Sizga nima beray?

Gapni nimadan boshlashni bilmay turib qoldim. Keyin esa ko'ngilga tegmaydigan qilib iltimos qildim.

– Opa, paq-puq olib kelmay to'g'ri qilibsiz. Iloji bo'lsa, shunday narsalarni sotmang...

Opa meni to'g'ri tushundi. Keyin esa yon-atrofimga qarab haligi bolakayni qidirdim. Afsuski, u allaqachon ketib bo'libdi. Balki u sizning ukangizdir yoki qo'shningiz, har ne bo'lganda ham begona emas. Xalqimiz iborasi bilan aytganda, «Bolaning begonasi bo'lmaydi». Agar o'shanday bolakaylarni uchratib qolsangiz, albatta, bu yo'ldan qaytaring. O'shanda siz katta ko'ngilsizliklarning oldini olgan bo'lasiz.

Yusuf FAYZULLO



uyning bolalarini bir hayron qoldiraylik.


Shu choq ko'z oldimga o'tgan yilgi yangi yil oqshomi namoyon bo'ldi. Qarama-qarshi turgan to'qqiz qavatli ikkita uyning bolalari bir-birlariga qarata rosa mushak otishgan edi. Achinarlisi, bu ishda

dagidek ikki o'rtoqni futbol o'ynayotgan joylarida uchratdim. Ularga o'tgan yili bayram arafasida sodir bo'lgan ko'ngilsiz voqealar haqida so'zlab berganimdan so'ng, «paq-puq»lar sotib olmaslikka, to'plagan mablag'larini foydali biror ishga

**PAQ-PUQ-GA
QUVONMANG!**

SOG'LOM AVLOD - KELAJAK POYDEVORI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishlari, ilm-fan va kasb-hunar sirlarini puxta egallashlari uchun alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ularning milliy qadriyatlar va an'analar ruhida kamol topishlari, zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Istiqloq yillarida barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar, tadbiriq etilayotgan yangiliklar natijasida, yurtimiz yoshlari ijtimoiy jihatdan yanada faollashdi.



Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan 1993-yil 23-aprel kuni «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etilgan edi. Shu kundan e'tiboran jamg'arma iqtidorli bolalarni izlab topish, jismoniy, ma'naviy sog'lom avlodni shakllantirishda ma'nan yetuk va ruhan tetik farzandlar tarbiyalashni ta'minlash uchun tibbiy, gumanitar, tarbiyaviy va investiya dasturlariga tayangan holda ish olib bormoqda.

Birinchi navbatda jamg'arma e'tiborini nogironlikni, bolalarning tug'ma kasalliklar bilan dunyoga kelishining oldini olishga qaratdi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, Finlyandiyaning «Pribori Oy» va Germaniyaning «Bristol Mayers Skvibb» kompaniyalari bilan hamkorlikda «Ona va

bola skrining» dasturini amalga oshirib kelmoqda. Hozirda Respublikamiz skrining markazi nafaqat Toshkent shahrida, balki Nukus, Andijon, Samarqand, Qarshi, Farg'ona, Termiz, Buxoro, Namangan, Navoiy shaharlarida ishga tushirildi.

Bundan tashqari, jamg'arma 2001-yildan buyon o'smir yoshlar o'rtasida «Ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash» dasturi asosida AQSHning «Prokter end Gembel» kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilayotgan o'quv-ta'lim dasturlari asosida xalqaro sinxron suzish, o'smirlar o'rtasida stol tennis bo'yicha Respublika turnirlari kabi

tadbirlarni uyushtirdi. Yoshlarni suv sportiga jalb etish maqsadida sinxron suzish turi bo'yicha maktablar, litsey va kollejlilar bilan birgalikda «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari o'rtasida musobaqalar o'tkazib kelinmoqda.

Jamg'arma taklifiga binoan bolalar uchun Avstriyaning «SOS-Kinderdorf Interneyshnl» bolalar mahallasi xalqaro jamiyati bilan hamkorlikda Toshkent shahrida bolalar shaharchasi qurilishi loyihasi amalga oshirildi. Loyiha «SOS-O'zbekiston bolalar mahallasi» assotsiatsiyasi bilan birgalikda muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi.

Shuningdek, jamg'arma «Legion Fortis» Trening Markazi bilan shartnoma tuzib, nogironlar uchun keng qulayliklar yaratish maqsadida respublikamizdagi bir qancha «Muruvvat uy»larida bo'lib, bolajonlarning har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash maqsadida sog'lom va nosog'lom bolalar o'rtasida o'zaro do'stona aloqalarni o'rnatib kelmoqda.

Bundan keyin ham jamg'arma davlat hamda xorijiy firmalar bilan hamkorlik qilish bo'yicha to'plagan tajribalaridan ta'lim, madaniyat, tibbiyot sohasida qo'shma dasturlarni yanada takomillashtirib, kengroq foydalanish niyatida.

Gulyuz BAHODIR qizi yozib oldi

TEST

1. O'zining dastlabki qissasi bilan A.Qahhor nazariga tushgan adib kim?

- A) E.Vohidov;
- B) O'Hoshimov;
- D) Cho'lpon;
- E) M.Yusuf.

2. «Tushda kechgan umrlar», «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi» romanlari muallifi kim?

- A) O'Hoshimov;
- B) Cho'lpon;
- D) E.Vohidov;
- E) T.To'la.

3. O'Hoshimov «...qissa faqat o'z onam haqida emas, umuman, o'zbek ayoli haqida va umuman, onalar to'g'risida», deb qaysi asarini e'tirof etgan?

- A) «Ikki afsona»;
- B) «Ikki eshik orasi»;
- D) «Dunyoning ishlari»;
- E) «Qarz».

4. Aka-ukalar taqdiri misolida ahil bo'lishga da'vat etuvchi hikoya qaysi?

- A) «Qarz»;
- B) «Alla»;
- D) «Iltijo»;
- E) «Haqqush».

5. «Nafaqa pulingizni nimaga sarflayapsiz? Ushbu parcha qaysi hikoyadan olingan?»

- A) «Gilam paypoq»;
- B) «Qarz»;
- D) «Bola yig'isi»;
- E) «Xiyonat».

6. «Qabriston g'ishtin devor bilan o'ralgan...» Qaysi hikoya ushbu gap bilan boshlanadi?

- A) «Alla»;
- B) «Iltijo»;
- D) «Gilam paypoq»;
- E) «Qarz».

7. Mirmirning qaysi she'ri Yusuf Xos Hojib ishlatgan «kut» so'zini «baraka» obrazi darajasiga ko'taradi?

- A) «Baliq ovi»;
- B) «Bulut»;
- D) «To'rg'ay»;
- E) «Shudring».

8. Shu payt allaqaylardan, Qaydam, qanday joylardan, Dastdanmi yo soylardan, Yangrab ketar sho'x ovoz. Ushbu parcha Mirmirning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Shudring»;
- B) «Baliq ovi»;
- D) «To'rg'ay»;
- E) «Qishlog'im».

9. M.Qoriyev qaysi institutni tugatgan?

- A) O'zMU;
- B) ToshPed. ins;
- D) Jah. til. ins;
- E) ToshYuridik. ins.

10. M.Qoriyev nechanchi yillardan jurnalistlik faoliyatini boshlagan?

- A) 1950-yillardan;
- B) 1960-yillardan;
- D) 1970-yillardan;
- E) 1965-yillardan.

XORIJDAGI TENGDOSHIM

«Xorijdagi tengdoshim» rukni ostida chet eldagi tengdoshlaringiz turmush tarzi haqida ma'lumotlar berib borilayotganidan xabaringiz bor. Bu galgi ma'lumotlar ispan bolalari hayotiga oid bo'lib, diqqat bilan o'qisangiz, millatimizga xos bo'lgan bolajonlik fazilati ispanlarda ham borligini payqaysiz.

ISPAN BOLALARI

Ispan oilalarida buva-buvi, ota-ona, amaki va uning farzandlari bir oila bo'lib yashaydilar. Ularda o'zaro hurmat, mehr-oqibat juda kuchli bo'lib, oilalarda janjal kamdan-kam uchraydi. Chaqaloq tug'ilgach, unga ota-onasining yoki yaqin qarindoshining ismi qo'yilishi odat tusiga aylangan. Shu sababli, bir oilada to'rtta Mariya hamda beshta Pedro ismlari bo'lishi mumkin. Ayrim oilalarda buvasining, otasining, amaki va jiyanlarning ismlari ham bir xilda bo'ladi. Bu hol ispanlarni sira taajjubga solmaydi. Bolakaylarni ismlarini qisqartirilib, Anxelito, Xuanito, Piko, Pepe, Loli deya erkalatsalar, kattalarni esa Fransisko, Xose, Dolores deya to'liq ismlari bilan chaqiradilar.

40 YOSHIDA HAM BOLA

Andalusiyadagi ko'pgina oila farzandlari voyaga yetsalar ham, qardron uylarini tark etmaydilar. Ispanlar sochlariga oq oralab, peshonasiga ajin tushgan 40 yoshli farzandini xuddi yosh boladek parvarishlab, erkalatishga o'rganib qolganlar. Hattoki 40 yoshli farzandiga shirinliklar yedirib qo'yish ota-onalarning sevimli mashg'ulotlaridan biriga aylangan. Buning evaziga ularga farzand mehriy o'zigina kifoya qiladi.

SOG'LIQ UCHUN XAVFLI

Ispanlar farzandlarini har qancha yaxshi ko'rmasinlar, ular tarbiyasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadilar. Farzandlariga sog'liq uchun xavfli bo'lgan kompyuter va uyali aloqadan foydalanishni chegaralab qo'yganlar. Negaki, bu ikki texnika vositasi bola salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ota-onalarni tashvishga solmoqda. 90 foiz ispanlar farzandlarini internetdan foydalanishlarini qattiq nazorat qiladilar. Bundan asosiy maqsad, bolalarni chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalardan saqlashdir.

OILA DAVRASIDA



Ispanlar yakshanba kuni tushda yig'ilishni xush ko'radilar. Aksariyat hollarda butun oila a'zolari kafe yoki restoranlarda tushlik qilishni belgilab oladilar. To'rtta katta stol birlashtirilgach, oila a'zolari bir-birlari bilan qizg'in suhbatga tushib ketadilar. Chetdan kuzatgan kishi, bu qarindoshlar uzoq vaqtdan buyon ko'rishmagan bo'lsa kerak, degan xayolga keladi. Ular doimo o'zaro hurmatni saqlab, samimiy munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun ham bu suhbat uzoq davom etadi.



YANGI AVLOD

Bugunning yangi avlodlariga havas qilsa arziydi.
Boisi, ular har sohada, san'atdami, sportdami, adabiyot yo'nalishidami,
o'z iqtidorlarini namoyish etishmoqda.
Ushbu sahifada «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda «O'zbekiston madaniyati
va san'ati forumi» jamg'armasi hamkorligida tashkil etilgan «Yangi avlod» bolalar
ijodiyoti festivalining 2009-yilgi ishtirokchilaridan ayrimlari bilan tanishasiz.
Festivalning Respublika bosqichida saralarning eng saralari
qatnashishdi. Zero, bu bosqichda ishtirok etishning o'zi
g'oliblikdir.

QALBIMIZNI AYLADI SHOD, BAXTI KULGAN YANGI AVLOD!

Bolajonlar bor joyda samimiyat bor. Ba'zan bolalar uchun xizmat qilayotganlar haqida ham shunday deyishimiz mumkin. Buni «Yangi avlod – 2009» bolalar ijodiyoti festivalining Respublika bosqichida ham kuzatdik.

Tajribali rejissyor Rustam aka Shamsiddinov festival boshlanishi oldidan zalda o'tirgan bolajonlar bilan holahvol so'rashar ekan, «Nonushta mazali ekanmi?» – deb so'radi. Ishtirokchilarning «mazali» degan ovozlari eshitganlaridan so'ng, «Mazali taomni men ham mazza qilib yegan bo'lar-dim», dedilar hazil aralash.

Shu payt kutilmaganida zalda o'tirgan namanganlik bolakay sahnaga yugurib chiqdi-da, qo'lidagi «buterbrot»ni rejissyorga tutqazdi. Tengdoshining harakatlarini kuzatib turgan ishtirokchilar qarsak chalib yuborishdi. Rejissyor ssenariysida



bo'lmagan bu holat zaldagilarga o'zgacha xushkayfiyat baxsh etdi. Bu yilgi festival ana shunday quvnoq kayfiyatda boshlandi.

YURTNi OBOD ETGAYMIZ

Egallab ilm-u fanni,
Mo'jiza yarataman.
Ona yurtim dovrug'in,
Olamga tarataman, –

deya she'rilar mashq qilayotgan Oydiyoy Abdusharipova adabiyot va she'riyat yo'nalishida ishtirok etdi. U Urganch tumanidagi Mirzo Ulug'bek nomli 2-umumta'lim maktabining 6-sinfida o'qiydi. Uning «Yangi tong quvonchi» she'riy to'plami «Xorazm» nashriyatida chop etildi.

Qashqadaryolik Malika Sayfiyeva:



– Har safar Mustaqillik maydoniga kelganimda, qalbmida Vatanimga bo'lgan mehrim jo'sh urib ketadi. Shunday ozod va obod yurtda yashayotganimdan yuragim faxrga to'ladi, – deydi.

Bunyod Xolmurodov adabiyotga, she'riyatga qiziqadi. Uning «Mening Surxonim», «O'g'loningman, Vatanim!» nomli she'riy kitobi bosmadan chiqqan. Bunyod Termiz shahridagi 4-ixtisoslashtirilgan maktab-internatda tahsil olmoqda. Bo'sh vaqtlarida kitob, gazeta va jurnallar o'qishni yaxshi ko'radi. Shuning uchun ham u:

Kitob bilan do'stlashing,

Kam bo'lmaysiz dunyoda, – deb yozadi she'riy misralarida.



G'uzorlik Sarvinoz MAMARAHIMOVA «Yangi avlod» festivalidan olam-olam taassurotlar oldi.

Gulasaldagi san'atga ishtiroq katta buvisi – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist E'tiborxon Qo'ziyoyevadan o'tgan bo'lsa, ajabmas. Buvisiga munosib nabira bo'lishga intilayotgan Gulasal Qo'ziyoyeva maktabda, tuman, viloyat va Respublikada bo'ladigan barcha tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. U Farg'ona shahridagi 29-umumta'lim maktabining 5-sinfida o'qish bilan birga, ustoz Sevara opadan raqsning sir-sinoatlarini qunt bilan o'rganmoqda. Navoiylik Yasmina G'afrova esa «Xakkalaka o'ynasam-chi-yo, dukkalaka o'ynasam-chi», deya qo'shiq aytib raqsqa tushganida, butun dunyo raqsqa tushayotganday bo'ldi, go'yo. Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 7-musiqqa maktabi o'quvchisi Kamron Bekpo'latov skripka chalganida, Yangiyer shahridagi 4-sonli Bolalar san'at va musiqqa maktabining 7-sinf o'quvchisi Sevara Mahmudova ijrosida fortepyanoda V.Saparovning «Takkata»si yangraganda, yaxshi navoning millati yo'qligiga, kuy va qo'shiq ezgulik elehisi ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik. Yosh san'atsevarlarga, kelgusida betakror san'atingiz bilan dunyoni to'ldiring, degimiz keladi.

Sahifani Feruza SOYIBJON qizi tayyorladi

SHIRIN TUYG'ULAR

Ziyoda Qosimova izboskanlik (Andijon viloyati) ijodkor o'quvchilar orasida ancha tiyrak, ziyrak qiz sifatida tilga tushib ulgurdi. Chunki u bolalikning beg'ubor dunyosini o'ziga xos – o'zgacha ilg'aydi, ko'radi. Bolalarcha hishayajonlarga to'la lahzalarni obrazli ifodalarda misralarga ham tizadiki, bu satrlar sizga ham yoqib tushayotganini sezib quvonasiz.

Uning ana shunday shirin tizmalaridan ikki-uchtasini sizlarga ham ilindik, aziz bolajonlar!

Abdunabi BOYQO'ZIYEV,
shoir, publitsist



TILI SHIRIN BENAZIR

Ayasi kir yuvardi,
Suv tashirdi qizlari.
G'ayrat, shijoatidan
Qizil bo'ldi yuzlari.

To'rt yasharli Benazir
Ergashdi opalarga.
Paqirchasi qo'lida,
Yurishi kattalarday.

Bir gal suv eltayotib,
Xitob qildi muloyim:
– To'xtang, opajonlarim,
Birpas charchab olayin.

ERKA QIZ

Dada, dada, dadajon,
Nega qaraysiz yomon?
Bitta qandga shunchalar
Urisharmi otalar?

Shirinlikni endi hech
So'ramasdan yemayman.
Agar buvim qand bersa
O'zimga ham bermayman.

Ziyoda QOSIMOVA,
Andijon viloyati, Izboskan tumani

ORZU

Shamollar esadi, manzili olis,
Subhidam ofstobim mehrin taratar.
Orzuli osmonim g'ubordan xolis,
Sayroqi qush kabi meni qaratar.

Dunyoni dunyocho sevaman ba'zan,
Berilib orzuning og'ushida jim.
Singimoq istayman o'zim gohida,
Yana o'zligimga qaytaradi kim?

Dilimda baxt degan behadik bir so'z,
Uning peshhog'ida unsam gul kabi.
Mehrdan yaratsam ham qosh-u, ham ko'z,
Bular orzularim ungan maktabi.

Yelkansiz kemadek xayolda suzib,
Shabada qurg'urga beraman erkim.
Bebaho so'zlardan marjonlar tuzib,
Barchasin, barchasin sizlarga eltgum.

Nilufar MADRAHIMOVA,
Xorazm viloyati, Yangibozor tumani

MEHRI BIR UMMONKI..

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda Farg'onaning so'lim Log'on qishlog'ida Shermat ismli bir bolakay yashagan ekan. U doirani shunaqa o'xshatib chalarkanki, asti qo'yaverasiz. Pastqamgina uylarning loysuvoq tomlariga chiqib olib, o'rtoqlari bilan «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Oq terakmi, ko'k terak», «Zuv-zuv», «Boychechak» kabi qo'shiqlarni kuylab, rasqga tushib, vaqtlarini xushlab yurisharkan.

Qishloqda Parcha xola ismli bir shaddodroq onaxon bo'lgan ekan. Suronli urush yillarida turmush o'rtog'idan yoki farzandidan qoraxat olgan ayollarni yupatish maqsadida: «Qani, Sher, doirangni ber-chi, bolam, bir yuraklarni yozaylik», deya doira chalib, qo'shiq va laparlar kuylab, hamqishloqlari dardini yengillashtirishga harakat qilarkan. Jajji Shermat esa ana shu kuy va qo'shiqlar ohangida onasining tizzasiga bosh

qo'ygancha uxlab qolarkan...

Uning murg'ak qalbida san'atga, musiqaga bo'lgan ishtiyoq ana shunday kechalarda uyg'ongan bo'lsa, ne ajab.

Keyinchalik turli ko'rik-tanlovlarda qatnashib, yaxshi natijalarga erishgan bolakay haqida hatto viloyat gazetasiga ham yozishgan ekan.

Sizlarni zeriktirib qo'ymaslik uchun ertaknamo tarzda boshlagan ushbu hikoyamiz aslida bor haqiqat, O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» ashula va raqs dastasining badiiy rahbari Shermat aka Yormatovning bolalik xotiralari.

Sevimli bastakorimiz bu yil tabarruk 70 yoshlarini qarshi oldilar. Shuningdek, «Bulbulcha» dastasining 40 yilligi yubileyi bilan ustozni samimiy qutlab, hamsuhbat bo'ldik.



– Farg'ona tumanidagi 30-maktabda o'qib yurgan kezarim edi. Bir kuni viloyat gazetasida «6-sinf o'quvchisi Shermat Yormatov tanlovda g'olib chiqdi», degan yozuvni

o'qib, yig'lab yuborganim sira yodimdan chiqmaydi. Maktabni tamomlab, bir olam orzular og'ushida poytaxt sari yo'l oldim. Toshkent madaniy oqartuv texnikumi (hozirgi madaniyat kolleji)ni birinchi qaldirg'ochlaridan bo'lib tamomlaganman. Avvaliga bu sohani tanlashimga biroz qarshilik qilgan onam san'at mening borlig'im, hayotimning mazmuni ekanligini his qilgach, oq fotiha berganlar.

USTOZ SHOGIRDLAR HAQIDA

1970-yildan buyon faoliyat ko'rsatib ham bor. Fotima va Zuhra kelayotgan dastamizda qanchadan- Ziyomammedova, Saodat

qancha san'atkorlar kamol topgani, topayotganini bir tasavvur qilib ko'ring-a. Yaqin-yaqinlarda yonimda qo'shiq kuylab yurgan jajji shogirdlarim orasidan xalqimizning sevimli xonandalari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar yetishib chiqayotgani qalbimda faxr va iftixor tuyg'ularini jo'sh urdiradi. Hatto men bilan sog'lom raqobat asosida mehnat qilayotganlari



Muzaffarova singari shogirdlarimning o'zlari ham ustoz sifatida «Tantana», «Sevinch» dastalariga boshchilik qilib kelishyapti. Hozirgi kunda dastamizning 500 dan ziyod a'zolari bor. Ularning bari aziz farzandlarim «doda» deya ardoqlashadi meni. Kelgusida hammalari san'atkor bo'lishmas, lekin musiqa maktablari, kollejlarda o'quvchilarga musiqa fanidan saboq berishsa ham, mehnatlarim zoye ketmadi, deya mamnun bo'laman...

Sevimli san'atkorimiz Shermat aka Yormatov haqida ko'p va xo'p yozganmiz. Lekin bu samimiy va dilkash inson haqida har qancha yozsak-da ozlik qilaveradi. Ustoz mehri bir ummonki, o'nlab, yuzlab shogirdlariga ulashsa-da, sira adog'iga yetmaydi.

Keling, yaxshisi, shogirdlarning dil so'zlariga quloq tutaylik.

MENI XALQQA TANITGAN INSON

Men Shermat akadan nafaqat qo'shiq kuylashni, balki kamtarlik, samimiylik, odamiylik kabi fazilatlarini o'rgandim.

Xalqimiz orasida Dilfuza Rahimova bo'lib tanilishimda ham ustozning hissalarini beqiyos, desam mubolag'a qilmagan bo'laman.

Shuning uchun ham qanday yutuqqa erishmay, birinchi navbatda ustozim bilan baham ko'rgim kelaveradi.

Shermat akaga sihat-salomatlik, omad, yana yuzlab shogirdlar yetishtirishdek mas'uliyatli ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Dilfuza RAHIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist



BOLALARNING KATTA DO'STI


Shermat aka Yormatovni bolalar qalbiga yo'l topa oladigan, shogirdlari yutug'ini o'z yutug'i deb biladigan fidoyi ustoz sifatida qadrlayman. Ta'bir joiz bo'lsa, bolalarning katta do'sti, deb atagan bo'lardim. O'zim ham shu dastada kamol topganman. Ustozdan olgan saboqlarim qo'l kelib, Turkiyada bo'lib o'tgan Butunjahon bolalar festivalining «Gran Pri» sohibi bo'lganman. Bir so'z bilan aytganda, ijodimning ilk mustahkam poydevorini aynan Shermat aka yaratganlar, desam xato bo'lmaydi.

«Bulbulcha» bilan hozirgi kunda ham hamkorlik qilib kelyapman. Dasta a'zolari bilan birgalikda kuylagan «Sumalak», «Mustaqil diyorimiz» nomli duetimiz o'tgan yili Navro'z tantanalarida yangradi.

Ustozimiz biz shogirdlari, qolaversa, respublika bolalari baxtiga sog' bo'lsinlar. Bolaligimizda qanday ko'rgan bo'lsak, sira o'zgarmaganlar. Mana shunday navqironlik Shermat akani hech qachon tark etmasin.

Farhod SAIDOV,
«Tarona – 2006», «Yilning eng yaxshi milliy estrada guruhi» nominatsiyasi sovrindori, «Sarbon» guruhi xonandasi





**O'zbekiston
xalq
yozuvchisi
Muhammad
Alining
«Tong
yulduzi»
gazetasi
savollariga
javoblari**

– Bolalikda samimiy orzular qilgan inson borki, niyatiga yetgan. Bu borada birinchi yozgan asaringiz bilan bog'liq voqeani eslash o'rindir.

– Afsuski, birinchi yozgan she'rimni yoddan bilmayman, ammo u muhabbat haqida ekanligi aniq esimda... Bolalikdagi orzularga kelsak, men o'n yoshimdan she'rlar yoza boshlaganman. Va o'sha uchunchi, to'rtinchi sinflarda o'qigan paytlarimdayoq, kelajakda faqat shoir, adib bo'laman, degan niyat qalbimda hukmron edi. Kelajagimni boshqacha tasavvur qilmaganman, bu borada negadir sira ikkilanmaganman. Birinchi she'rim o'n besh yoshimda markaziy matbuotda bosilib chiqqan. Yettinchi sinfda o'qiyotganimda kundalik tutib, unga har kungi voqealarni yoza boshlagan edim. Talabalik davrimgacha bir necha daftar to'ldirganman.

– «Ulug' saltanat» asaringizni yozish jarayonida Amir Temurning bolalik davriga ham murojaat qilganmisiz?

– «Ulug' saltanat» asari Amir Temurning yurt boshiga kelgan pallasiga, buyuk davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga, maydonlardagi qahramonliklariga, aniqrog'i, 1370-1405-yillardagi hayotiga bag'ishlangan. Sohibqironning bolalik davrlarini yoritish asar rejasiga kirmagandi. Qolaversa, Amir Temurning bolaligi haqida rasmiy tarixiy solnomalar yo'q. Rasmiy tarixda Sohibqironning nomi milodiy 1360-yildan, ya'ni buyuk bobomiz 24 yoshga to'lganidan boshlab zikr etiladi va tarixga kirib kelishi shundan belgilanadi. Olimlarning guvohlik berishlaricha, bolaligi haqidagi barcha kitoblarning afsonaviy xarakterda yozilganini ko'rib, halol va insofli inson bo'lgan Temurbek, bu yozilganlarga hech kim ishonmaydi, ular rostdan ko'ra ko'proq yolg'onga o'xshaydi, deya yig'ib, yondirib yuborgan ekan. Bu haqiqatga juda yaqin.

– «Ulug' saltanat» turkumiga kirgan asarlaringiz haqida muxlislarimiz ko'proq ma'lumot berishingizni so'rashgan.

– «Ulug' saltanat» tetralogiyasiga (tetralogiya – to'rt kitob degani) «Jahongir Mirzo» (1996-99), «Umarshayx Mirzo» (2001-2004) va yaqinda bitirganim «Mironshoh Mirzo» (2005-2008) tarixiy romanlari kiradi. Darrov fahmladingiz, romanlar Sohibqiron farzandlarining nomlari bilan atalgan. Inson umrining to'rt fasli bor: bolalik, yoshlik, kamolga yetishlik, keksalik. Tabiatda ham to'rt fasl bor edi. Asarni yozishga kirishayotgan vaqtimda ana shu to'rt o'g'il vositasida Sohibqiron umrining fasllarini ko'rsatib bermoqchi bo'ldim va o'z-o'zidan har bir kitob bir o'g'il nomi bilan ataldi. Albatta, bu ramziy ma'noda, «Ulug' saltanat»ning bosh qahramoni esa Amir Temurning o'zidir.

«Ulug' saltanat»dan avval Amir Temurning 24-30 yoshlik davrlarini ham yoritgan «Sarbadorlar» tarixiy romandologiyasini (diologiya – ikki kitobdan iborat degani) qog'ozga tushirdim. Unda yurtimizni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilgan mard va jasur otabobolarimiz – sarbadorlar mavzusini qalamga oldim. «Ulug' saltanat» voqealari «Sarbadorlar»dagi voqealar davomidir.

Tetralogiyani yozishdan maqsadim, o'quvchi shu kitoblarni olsa-yu, o'qib, buyuk davlat tuzgan Sohibqiron bobomizning suronlarga to'la hayotini, Vatanimiz o'tmishini xuddi bir-bir oralab chiqqanday, o'sha asrlarga borib kelganday bo'lsa (albatta, asar shunga yarasha yozilsa), shunday ulkan saltanat, jahonshumul siymo bilan g'ururlansa, o'zini o'sha ulug' zotlar avlodiman, o'sha silsilaning bir halqasiman, deb his etsa!..

Hozir asarning to'rtinchi kitobi – «Shohruh Mirzo» romani ustida ishlamoqdaman.

– «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovimiz davom etmoqda. G'olibga dastxat yozib berishga to'g'ri kelsa,



qanday tilak bildirardingiz?

– G'olibga dastxat yozishga to'g'ri kelsa, «Kitob o'qigan odam dunyoda hech kimdan, hech narsadan kam bo'lmaydi», deb yozgan bo'lardim. Chunki kitob insonning eng qadrdon, samimiy va beg'araz do'stidir. Kitob – adibning, muallifning kelajak avlodlarga yuborgan duoi salomidir. Kitob bizga faqat yaxshilikni ravo ko'radi, nopok qadamlardan ogohlantiradi, tarbiyalaydi, go'zallikdan zavqlanishni o'rgatadi, aqlimizni charxlaydi, ongimizni o'stiradi. Uning hayotiy o'git va kengashlari bizni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Kitob bizdan mehrdan boshqa hech narsa talab qilmaydi.

– Katta-katta yozuvchilar bolalar uchun ham ajoyib asarlar yozib berishgan. Sizda ham shunday reja bormi?

– Chindan ham, katta yozuvchilar, ustozlar bolalik haqida bolalar uchun asarlar yozishgan. Mening ham niyatim yo'q emas. Hatto yozib turaman, desam ham bo'ladi. Masalan, «Alifbo» uchun she'rlar yozib berganman, «Vagonlar», «Shudring», «Bo'taloq» nomli she'rlarim ham bor. Bir band keltiraman:

**Bo'talog'im yayraydi,
Yantoq bersam chaynaydi.
Yam-yashil o'tloqlarda**

BUYUK SODDALIK

**Lo'k-lo'k chopib o'ynaydi.
Bo'talog'im, lo'k-lo'k,
Lo'killama, cho'k-cho'k!**

«Ninachi haqida ertak» asarimni ham bolalar sevib o'qiydilar. Bola psixologiyasi, ichki dunyosi juda boshqacha. O'ylaymanki, asl, haqiqiy dunyo – bolalar dunyosi. U yerda yolg'on gap yo'q, hamma narsa go'zal, sehirli, orzular ro'yobga chiqadi. Yomonlar daf bo'ladi, fantaziya kuchli. Olam bepoyon... Bola ruhiyatining ajoyibligiga bir misol aytay: qizim Nargizaning ikki yarim yoshlik vaqti. Bir kuni ishdan kelsam, ayasi: «Dadasi,

Nargiza bitta piyolani sindirib qo'ydi, eshik zinasiga tushirib yubordi...», dedi hazillashib. Nargiza darhol bir piyola oldi-da, zina ustiga kelib: «Yo'-o'q, piyolani mana bunday qilib tashlab yuborganim yo'q!» – dedi-yu, yana bir piyolani tashlab ko'rsatdi. Piyola chil-chil bo'ldi... Hamma kulib yubordi. Ertasi kuni Madaminjon amakisi kelib qoldi va uni bog'chaga eltib qo'ydi. Kechqurun amakisi: «Nargizaning bog'chasini ham ko'rib oldim...», deb maqtangandi, Nargiza darhol: «Baribir guruhimni bilmaysiz!» deya tag'in hammamizni kuldirdi. Bularning bari buyuk soddalik alomatlari. Ijodda, san'atda, hayotda eng buyuk narsalar asli soddalikdan boshlanadi.

Bolalar haqida yozish uchun yozuvchi ularning ruhiyatini yaxshi bilmog'i lozim bo'ladi.

– Bugungi bolalar va o'smirlarimiz haqida fikrlaringiz?

– Bugungi bolalar va o'smirlarimizga havas qilsa arziydi. Qurilayotgan maktablar, kollej, litseylar binolari bino emas, naq saroyning o'zginasi. Ulardagi kompyuter xonalari, axborot-resurs markazlari kishini juda quvontiradi. Vaqtimni bekor o'tkazmayman, o'qiyman, bilim olaman, katta odam bo'laman, xalqimga xizmat qilaman, deganlarga hamma imkoniyatlar yaratilgan. Buning qadriga yetib, imkonlardan unumli foydalanish kerak.

– «Tong yulduzi» gazetasida ilk marta qachon qatnashgan edingiz?

– «Tong yulduzi» gazetasini o'quvchilik davrimdan bilaman. Uning har sonini qo'ldan qo'yman o'qir edik. 1965-yilda gazetada bo'lim mudiri bo'lib ishlaganman. «Qo'zichoq» nomli ilk she'rim ham shu yili e'lon qilingan edi. Mana o'sha she'r:


**Yashil o'tloq erkasi, sakray-sakray tinmaysan,
Olamda ne gaplar bor, anglamaysan, bilmaysan.**

**Maysalarga egib bosh, kurt-kurt qilasan doim,
Onang suyub yunglaring yalab qo'yar muloyim.**

**Nariroqda allakim seni kuzatar shu choq,
Ko'zlarida nedir bor, yonida sovuq pichoq.**

**Senga boqib ko'zlari tinib ketsa, ajabmas,
Senga qadar pichog'i sinib ketsa, ajabmas...**

To'lqin HAYIT suhbatlashdi




BIZ DUNYOGA CHIQYAPMIZ

«Mamlakatimizda sport inshootlarini qurish borasida katta tajriba to'plangan, boshqacha aytganda, yagona tizim tashkil etilgan. Galdagi asosiy vazifa ana shu inshootlarni zamon talabi darajasida jihozlash va ulardan samarali foydalanishdan iborat».

Islom KARIMOV

Har bir ota-ona farzandini eng zamonaviy sport majmualarida o'zi yoqtirgan sport turi bilan shug'ullanib, sog'lom ulg'ayishini istaydi. Buning uchun barcha sharoitlar yaratilganidan mamnun.

Xoang VINX JIANG,
professor, Osiyo Olimpiya kengashi
vitse-prezidenti



MAHALLAMIZ BOLASI CHEMPION BO'LADI

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining «Sport karvonlari – O'zbekiston bolalariga» shiori ostidagi eshaloni yo'lga chiqib, yurtimizning eng chekka hududlarida yangidan qad rostlagan sport majmualarini zarur sport anjomlari va asbob-uskunalari bilan jihozlash aksiyasida qatnash-

di. Bugungi kunda bunday aksiyalar odatiy holga aylanib-ulgurgan. Sovg'alar egalariiga yetkazilgan vaqtda nafaqat bolajonlar, balki ko'pni ko'rgan oqsoqollar ham quvonchlarini sevinch ko'z yoshlari orqali ifoda etdilar: «Xayrli ish hamisha o'z samarasini beradi. Mening nabiram endi chempion bo'lsa, ne ajab?!» deyishdi ular ishonch bilan.



2004-yilda 120 nomdagi sport anjomlaridan 47 turi xorijdan keltirilgan bo'lsa, endilikda 118 turdagi bolalar sport anjomlari va sport kiyimlari respublikamizda ishlab chiqarilmoqda.

CHEMPIONNING HAYRATI

2005-yili yurtboshimiz tashabbusi bilan Germaniyaning yetakchi sport anjomlari ishlab chiqaruvchi «Jageps Sport» (lotincha) firmasidan 27 xildagi gimnastik jihozlar sotib olindi. Bu jihozlar mamlakatimizdagi eng keksa gimnastika maktabi hisoblangan Mirobod tumanidagi 14-Bolalar va o'smirlar sport maktabi, shuningdek, Farg'onadagi ixtisoslashtirilgan maktabga o'rnatilgandi. O'shanda gimnastika zalining tantanali ochilish marosimida ukrainalik mehmon, ikki karra Olimpiya chempioni Liliya Podkopyayeva o'z hayratini

yashirolmay, shunday degandi:

– Yurtingizda bolalar sportiga berilayotgan bunday katta e'tiborni men dunyoning hech yerida uchratmadim. Sizning tashabbuslaringizni Ukraina-

da ham joriy etishga harakat qilyapmiz. O'zbekistonni, shubhasiz, eng salohiyatli va istiqbolli mamlakat, deb atasam, adashmagan bo'laman.



Bolalar ko'zidagi quvonch, yuzlaridagi tabassum, qalblaridagi shijoat, musobaqalar davomidagi hayajon, g'oliblik nashidasi – barcha-barchasida baxtiyorlik aksi bor.

SEROQIRRA SPORTCHI

Mirjalol QOSIMOV

Bektimir tumanidagi Respublika televideniye va radio kasb-hunar kollejining 1- bosqich talabasi. Fe'l-atvoridagi jiddiylik uni yanada ko'rkam ko'rsatadi. Sportning kikkboxing turi bilan muntazam shug'ullanib, hozirda 4 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medali sohibiga aylangan.

Sportchi bolalar bilan ko'p hamsuhbat bo'lganmiz. Kitob o'qish ular uchun sport mashg'ulotlaridan-da mushkul bo'lsa kerak, negadir kitob o'qishni unchalik yoqtiravermaydilar. Ammo bo'lajak chempion Mirjalol ko'p kitob o'qiydi. Shuningdek, Shohruh reperning qo'shiqlarini ham maromiga yetkazib kuylay oladi. Uning yana bir ibratli odati muntazam ravishda gazeta va jurnallar o'qib boradi.

Kelajakdagi orzusi sport sohasida chempionlikka erishish.

Ulug'bek MUSAQULOV,
yosh muxbirimiz

QOG'OZGA TUSHIRILGAN REJALAR



Har yili noyabr oyida maktabimizda rus tili fani oyligi o'tkaziladi. Barcha ishlar reja asosida olib borildi. Oylikning har bir haftasi nomlanib, tadbirlar, ochiq darslar rejasi tuzildi. O'qituvchilarimiz bilan bir qatorda o'quvchilar ham darslarga zo'r ishtiyoq, qiziqish bilan tayyorgarlik ko'rganliklari dars jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi. Oylik yakunida KVN, to'garak ishlari, ifodali o'qish, «Rus tilini o'rganing» festivali kabi tadbirlar o'tkaziladi. Fan oyligining bunday qiziqarli, mazmunli o'tkazilishida rus tili o'qituvchilari Lobar Shukurova, Jamila Toirova, Nargiza Xolmuhammedovalarning hissalarini katta. Qog'ozdagi rejalarini amalga oshirishda ustozlar bilan birga mehnat qilgan o'quvchilarga ham rahmat ayting keladi. Bir-birimizni qo'llab ishlasak, ishimiz unumli bo'ladi, shunday emasmi?

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,
Toshkent shahar Hamza tumanidagi
198-umumta'lim maktabining rus tili o'qituvchisi

SKANVORD

				1					Qadimgi Volga	Aba-diy			
	Ikki dar-yo orali-g'idagi hudud	Ozar-bayjon adibi	Taraq-qiyot	Bino-tomi tayanchi	Kuba mar-kazi	Radio-aktiv element							
				2	Kor-xona	Yahudiy adibi	Millat	Tuproq					
	Chiroy, husn	Erta tong	Ot-ulov abzali						Soylik-lar oralig'i	... qon			
									3	Nota			
	Nashr-ga yo-zilish		4	Savdo turi					Uchra-shuv				
	Rossiya-dagi ko'l	Arab alifbosi harfi	Kavkaz-dagi daryo					Allo-miy asari	Bilyard anjomi	Hodisala-rni qayd etuvchi			
				Gap turi					Joni-vorni tutish				
5			Azob, jabr	Katta hajm-li	Hor-diq	Xusrav (shoir)	Shi-rinlik	Ingliz aktri-sasi					
			Futbol quvon-chi		Ekin-zor				Nuro-niy	Suv-chi			
	Ob-havo mutaxas-sisi	Gaz moda	Tana qismi	Ada-biy janr	O'zbek shoiri				Tut-qun	I			
	O'tkir hidli gaz	Yulduz-larni o'r-ganuvchi	Toji-kiston daryosi	Avtomo-bil qismi			L						
								So'zla-shuv asosi			Maktub		
											Volida		
	Kitob javoni – ilm xirmoni, Undagi har jild – aql darmoni. Shoislom Shomuhammedov							Dengiz Joni-vori	Fran-siya shahri				
				Xitoy sozi	6				Ko'rsa-tish ol-moshi	Raq-s-dagi harakat			
								Qalb	M	Ip (kitobiy)	Yunon harfi		
				7	Mumtoz musiqa-shunos	Asaka avto mar-kasi							
Kalit so'z				2	1	6	1	4	4	7	3	5	2

Foziljon O'RIPOV tuzdi

Fayzulla ABDULLAYEV

TOSHKENTIM

Zamini zar, dehqoni zargar,
Qadri baland, suyak Toshkentim.
Iqboli nur, go'zal poytaxtim,
G'ururi tog', buyuk Toshkentim.

Gulzorlari ko'rkam va obod,
Ham navqiron, ham ko'hna shahrim.
Shaharlar ko'p ko'rkam dunyoda,
Men uchun sen yagonam, faxrim.

Ajdodlaring ruhi madadkor,
Balqib tursin boshda quyoshing.
Ona shahrim, azim Toshkentim,
Ulug' bo'lsin bundan-da yoshing!

Shahlo XOLMATOVA,
yosh muxbirimiz

ANDALAR



O'qituvchi:
– Bolalar, menga g'aroyib tasodifga misol keltiringlar.
Boltavoy:
– Mening dadam va onamning to'yi bir kunda bo'lgan!..

Tarix darsida:
– Boltavoy, 1441-yilda qanday voqea ro'y bergan?
– Alisher Navoiy tug'ilgan...
– Hm-m... Yaxshi... 1495-yilda-chi?
– Alisher Navoiy 54 yoshga kirgan...

2 - sinf o'quvchisi
dadasidan so'rabdi:
– Dada, o'qituvchilar maosh olishadimi?
– Ha, o'g'lim.
– Misollarni biz ishlaymiz-ku, ular maosh olishsinmi?

Maktabda ona tili darsi.
O'qituvchi:
– Bugun biz fe'llarni tuslaymiz. Masalan: men turibman, sen turibsan, u turibdi, biz turibmiz, siz turibsiz, ular turibdilar. Qani, Boltavoy, qaytar-chi!
Boltavoy:
– Hamma turibdi!



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbor RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (Mas'ul kotib), Dilshoda RAHMATILAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 700129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092
Adadi - 26391
Buyurtma N: J 8454

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin O'RIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi, Yusuf ABDULLAYEV